


E. SARIQOV, B. HAYDAROV,
Sh. SARIQOV, K. ALLAMJONOV



SOLIQQA TORTISH ASOSLARI

*Umumta'lim maktablarining
8-sinfi uchun o'quv qo'llanma*



*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
umumta'lim maktablari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etgan*

МАРБУРИЯ
НУСХАЛАР

TOSHKENT
"YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE"
2008

65,261.4я721
Loyiha rahbari — O'zbekiston Respublikasi
Davlat Soliq qo'mitasi raisi **B. Parpiyev**

*Davlat Soliq qo'mitasi raisining
birinchi o'rinbosari E. Gadoyev umumiy tahriri ostida*

Taqrizchilar: *F. Mirzayev, Davlat Soliq qo'mitasi, boshqarma boshlig'i;*
N. Xo'jayev, iqtisod fanlari doktori, professor;
X. Xotamova, Respublika ta'lim markazi, iqtisodiy ta'lim
sektori boshlig'i.

Ushbu kitob soliq va soliq to'lovlariga oid bilimlarni "Iqtisodiy bilim asoslari" fani va boshqa fanlar tarkibida o'rganishni osonlashtirish maqsadida yaratilgan. Ushbu kitobdan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi moddalari hamda soliq va soliq to'lovlariga oid boshqa materiallar joy olgan. Kitobdan "Iqtisodiy bilim asoslari" darsligi va boshqa darsliklarga qo'shimcha o'quv qo'llanma sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir. Undagi materiallarning istalganini alohida ajratib, muayyan fan bo'yicha darslarda foydalanish mumkin.

SHARTLI BELGILAR:



O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi moddasidan



— Qiziqarli material



— Tarixga nazar



— Yodingizda saqlang!




— Faollashtiruvchi savollar



— Mavzuga oid savol va topshiriqlar

65.261.4
S77



Soliqqa tortish asoslari: Umumta'lim maktablarining 8-sinfi uchun o'quv qol./ E. S. Sariqov, B. Haydarov, Sh. Sariqov, K. Allamjonov; E. Gadoyevning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Yangiyul poligraph service, 2008. – 48 b.: rasm.

I. Sariqov, E. S. va boshq.

BBK 65.261.4я7

ISBN 978-9943-309-87-6


© "Yangiyul poligraph service", 2008

© E. Sariqov, 2008

MUNDARIJA

1. Soliq to'lash savob	4
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi	8
3. Soliq to'g'risidagi hujjatlar asoslanadigan asosiy prinsiplar	10
4. Soliq to'lovining o'ziga xos xususiyatlari.....	12
5. Soliq to'lovchilarning huquqlari.....	15
6. Soliq to'lovchining majburiyatlari	17
7. Umumdavlat, mahalliy soliqlar va majburiy to'lovlar	20
8. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari.....	26
9. Soliq munosabatlarining subyektlari.....	29
10. Yuridik va jismoniy shaxslar	33
11. Soliqlarni iqtisodiy mohiyatiga qarab guruhlash	37
Soliq to'lovchisi bilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar (<i>O'zbekiston Respublikasi</i> <i>Soliq kodeksi 22-moddasiga asosan</i>).....	42

1. SOLIQ TO'LASH SAVOB



**DAVLAT BUDJETI VA DAVLAT
MAQSADLI JAMG'ARMALARI**



1. Rasmi sxemani sharhlab berishga harakat qiling.
2. Siz rasmlarda tasvirlangan faoliyat bilan shug'ullanuvchilardan tashqari yana qanday soliq to'lovchilarni bilasiz?

3. Davlat budjeti va maqsadli jamg'armalaridan mablag'lar rasmlardagilardan tashqari yana qanday yo'nalishlarga sarflanadi deb o'ylaysiz?
4. Tasvirga qarab turib agarda soliq to'lovchilar soliqlarni o'z vaqtida va qonun bo'yicha talab qilingan miqdorda to'lamasalar qanday hol yuz berishi mumkinligini tasavvur qilib ko'ring va o'z fikringizni sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

Xalqimizda “Davlatning haqqini ado qilmaslik sag'irning haqqini ado qilmaslikdan ham yomonroq” degan naql bor. Agar shu naqlning mag'zini chaqadigan bo'lsak, soliq to'lovchilarning davlatga to'layotgan soliqlari nafaqat yetim-yesirlarga, balki jamiki moddiy yordamga muhtoj shaxslarga va mamlakat aholisining va davlatning moddiy va ma'naviy rivojiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxs uchun belgilangan soliqlarni o'z vaqtida to'lash nafaqat zarur balki **savob** ish hamdir. Barcha tadbirkorlar yoki mulk egalari to'layotgan daromadlarida davlatning qaramog'idagi korxonalar va tashkilotlar xodimlarining, qariyalarning, nogironlarning, ko'p bolali oilalarning, yetim-yesirlarning haqqi bor. Mana shu haqni ado qilgach, ya'ni ularning hissasi sifatida belgilangan soliqlarni to'lash bilangina topilgan daromad **halollanadi**. Shuning uchun ham barchamiz uchun qonun bo'yicha belgilangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni bajarish soliq to'lovchisi sifatida tan olingan har bir odam uchun “**ham qarz, ham farz**”dir.

Soliqlar va davlatga boshqa majburiy to'lovlar davlat budjetiga yoki davlatning maqsadli jamg'armalariga kelib tushadi. Davlat budjetidan yoki maqsadli jamg'armalaridan mablag'lar ta'lim, sog'liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish tizimlari va davlat boshqaruv organlari ehtiyojlariga hamda qarilik pensiyalari, nafaqalar va boshqa to'lovlarni amalga oshirishga yo'naltiriladi. Pul mablag'larining soliq to'lovchisidan davlat ijtimoiy xizmatlari iste'molchisigacha bo'lgan oqimini sxematik tarzda quyidagicha tasvirlash mumkin.

SOLIQLAR VA DAVLATGA TO'LANUVCHI BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR





Ulug' shoirimiz, fahr-iftixorimiz Alisher Navoiy feodalizm munosabatlari hukmron bo'lgan bir davrda yashab ijod etdi. "Mahbub ul-qulub" asarida Alisher Navoiy jamiyatning boshida savdo-sotiq, tijorat ishlari muhim rol o'ynashi haqidagi iqtisodiy g'oyani merkantilistlardan bir asr ilgariroq asoslab bergan ekan. "Savdogar, – deb yozadi buyuk al-lomamiz, – yolg'iz foydani niyat qilmasligi", "savdo qilib foyda topaman, deb ortiqcha kema surmasligi", "mol va pul ko'paytiraman, deb jonsarak bo'lmasligi kerak". "Savdogar boj-hiroj berish o'rniga o'z molini yashirib, o'z obro'sini to'kmasa yoki topgan-tutganini merosxo'rlari sotib sovurishi uchun to'plab qo'ymasa yoki bi-ror yomon hodisa qo'zg'ash uchun sarflamasa, jamg'armasa yaxshi bo'ladi".



Manba: "Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan"



1. Mavzuni o'rgangandan so'ng sizning soliq to'lovlari haqidagi tasavvuringiz o'zgardimi? Siz o'zingiz uchun qanday xulosa chiqardingiz? Fikringizni sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.
2. Soliq to'lashning savob amal ekanligini matndagiga qo'shimcha misollar yordamida asoslashga harakat qiling.
3. Har bir soliq to'lovchi luqmasi halol bo'lishi uchun avvalambor nima qilishi zarur ekan?
4. Davlatga to'lanadigan soliqlar qayerga borib tushadi? Boshqa majburiy to'lovlar-chi?
5. Davlat to'plangan mablag'larni qanday maqsadlarga yo'naltiradi?
6. Davlat tomonidan mablag'larni xarajat qilinish yo'nalishlarining birini ikkinchisidan muhimroq deb ajratib ko'rsatsa bo'ladimi? Javobingizni asoslashga harakat qiling.

2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SOLIQ KODEKSI



- 1-rasmda qanday kitob tasvirlangan?
- 2 – 5-rasmlarda kimlar va nimalar tasvirlangan?
- 2 – 5-rasmlardagilarning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga qanday aloqasi bor deb o'ylaysiz?
- Bu rasmlardagi jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida qanday umumiylik bor?
- Ularning iqtisodiy faoliyatlari natijalari sizning ta'lim olishingizga, salomatligingizni saqlashga va dam olishingizga qanday ta'sir qilishi mumkin?



Jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy shaxslar deya ataladi.

Siz "Soliq" so'zini ko'p eshitgansiz. Bu so'z nimani anglatishini ham bilasiz, albatta. Endi soliq, soliq to'lovlarini va soliq tizimi haqida jiddiyroq bilim, ko'nikma va malakalarni egallash payti keldi. "Iqtisodiy bilim asoslari" darsligingizga

qo'shimcha ravishda yaratilgan ushbu qo'llanmamiz sizga bu borada yordam berish maqsadida tayyorlangan.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda Davlat budgetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni O'zbekiston Respublikasining **Soliq kodeksi** yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, Soliq kodeksi soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini bajarishlari bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turuvchi asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Shuning uchun ham Soliq kodeksi moddalarini o'rganish ushbu qo'llanmaning asosiy vazifalaridan biridir.



Yuridik shaxs –

O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulki bilan sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot.

Mamlakatimiz hududida faoliyat olib boruvchi firmalar, korxonalar va tashkilotlar, shu jumladan, chet el firma, korxonalari va tashkilotlari ham yuridik shaxs deyiladi.



2-moddadan

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar ushbu kodeks bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi.

Davlat jismoniy va yuridik shaxslarni soliqlar tortish davomida ularning daromadlarini bir qismini majburiy to'lov sifatida budgetga olib qo'yadi. Bu soliq to'lovining **majburiylik** prinsipi deb ataladi.

Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash har bir shaxs uchun shart ekanligi ushbu kodeksning 6-moddasida belgilab qo'yilgan. Shu moddada hech kimning zimmasiga Soliq kodeksida nazarda tutilmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emasligi ham ta'kidlangan.



1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qanday vazifalarni bajaradi?
2. Soliq kodeksining 6-moddasida nimalar ta'kidlangan?
3. Soliq solishning majburiyligi prinsipi nimani anglatadi?
4. Jismoniy va yuridik shaxslar zimmasiga Soliq kodeksida ko'zda tutilmagan to'lovlarni yuklatish mumkin emasligi qanday kafolatlanadi?

3. SOLIQ TO'G'RISIDAGI HUJJATLAR ASOSLANADIGAN ASOSIY PRINSIPLAR



1. Soliq to'lovchining soliq qonunchiligini bilmasligining oldini olish uchun soliqqa oid qonun hujjatlari qanday talablarga javob berishi kerak deb o'ylaysiz?
2. 1- va 2-rasmlardagi soliq to'lovchilar uchun Soliq kodeksi yoki soliqqa oid boshqa hujjatlarda alohida, ularning jinsi, aql-zakovati, jismoniy kuchiga qarab maxsus talablar qo'yilsa bu qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin ekanligi to'g'risida mulohaza yuriting va sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.
3. Soliq kodeksi yoki soliqqa oid boshqa qonun hujjatlari har xil viloyatlar, shaharlar yoki tumanlar uchun har xil qilib tuzilishi maqsadga muvofiq emasligini asoslashga harakat qiling.
4. 3-rasmdagi gazetalar sahifasidagi soliqqa oid materialning chop qilinishi va soliqqa oid qonunchilikdagi barcha yangi-

liklar gazeta va jurnallarda e'lon qilinib borilishiga qanday ehtiyoj bor deb o'ylaysiz?

5. Soliqqa oid qonunchilik hujjatlarida qandaydir noaniqliklar mavjud bo'lsa va buning oqibatida soliq to'lovchining manfaatlariga ziyon yetishi mumkin bo'lsa, sizning fikringizcha bu holatni bartaraf qilishda soliq to'lovchi manfaatlari qay darajada e'tiborga olinishi lozim deb o'ylaysiz?

Soliq to'g'risidagi barcha qonun hujjatlari **majburiylik** prinsipidan tashqari yana bir nechta prinsiplarga asoslanadi. Bu prinsiplar quyidagilardir:

- Soliqqa oid qonun hujjatlarining **aniqligi** prinsipiga binoan hujjatda soliq va boshqa majburiy to'lovlarni qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda tushunarli tarzda ifodalangan bo'lishi lozim;
- Soliqqa qonun hujjatlarining **adolatliligi** prinsipiga binoan soliq solish umumiyligi va soliq tizimida ijtimoiy adolat, shaxsni kamsitishni inkor qilish tamoyillariga rioya qilish talab qilinadi;
- Soliqqa oid qonun hujjatlarining **yagonaligi** prinsipiga binoan soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir;
- Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining **oshkoraligi** prinsipiga binoan soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart;
- Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipiga binoan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinadi.



1. Soliq to'g'risidagi barcha qonun hujjatlarining muayyan va aniq prinsiplarga asoslangan bo'lishi nima sababdan zarur deb o'ylaysiz?
2. Sanab o'tilgan prinsiplardan qaysidir birini boshqalariga nisbatan muhimroq deb ajratib ko'rsatish mumkinmi? Nima sababdan?
3. Soliq kodeksi va soliqqa oid boshqa qonun hujjatlari keltirilgan prinsiplarga asoslangan bo'lishi natijasida soliq to'lovchilari qanday manfaatlariga ega bo'ladi?

4. SOLIQ TO'LOVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



1. Rasmlarda pul to'lovlari amalga oshirilayotgan vaziyatlar tasvirlangan. Ushbu pul to'lovlarini nomlashga harakat qiling.
2. Bu pul to'lovlarning har biri boshqalaridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Bu to'lovlarning qaysi birini soliq to'lovi deb atasak bo'ladi? Nima sababdan?
4. Ushbu to'lov boshqa to'lovlardan qanday xususiyatlari bilan ajralib turadi deb o'ylaysiz?



12-moddadan

Soliqlar deganda ushbu Kodeksda belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, budjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Biz bozordan yoki do'kondan tovar sotib olganimizda yoki mashina xizmat ko'rsatish shoxobchasining xizmatidan foydalanganimizda ushbu tovar yoki xizmat evaziga pul to'laymiz, ya'ni pul to'lovini amalga oshiramiz. Pul to'lovini talab qiladigan yana ko'plab vaziyatlar mavjud. Soliq to'lovining ana shunday pul to'lovlaridan farqi nimada? Bu savolga soliq to'lovining boshqa



Soliq – bu soliq to'lovchi – jismoniy yoki yuridik shaxs va soliq undiruvchi – davlat o'rtasidagi majburiy to'lovni ifoda etuvchi pul munosabatlaridir.

pul to'lovlaridan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarini bilgach javob topishimiz mumkin bo'ladi. Shu maqsadda soliq to'lovini boshqa pul munosabatlaridan farq qilishini ta'minlovchi o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz. Biz o'tgan mavzuda soliq to'lovini boshqa pul to'lovlaridan farq qiluvchi birinchi – majburiylik xususiyati bilan tanishib chiqqan edik.

Ushbu to'lovning qolgan xususiyatlari esa quyida keltirilgan.

SOLIQ TO'LOVNING BOSHQA PUL TO'LOVLARIDAN FARQINI BELGILOVCHI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



1. Soliq to'lash soliq to'lovchi deb tan olingan barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun majburiy bo'lib, bunda davlat soliq to'lovchi daromadlarining bir qismini o'z budjetiga majburiy ravishda olib qo'yadi. Bu soliqning **majburiylik** xususiyatini anglatadi.
2. Soliqlar davlat budjetiga tushishi shart. Pul to'lovi davlat budjetidan boshqa jamg'armalarga tushsa, unda bu hol soliq munosabati bo'la olmaydi. Bu soliqning **davlat mulkiga aylanishi** xususiyatidir.

3. Soliqlar jiddiy hisob-kitoblarga va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda belgilanishi lozim. Shundagina ular davlatning va xalqning manfaatlariga xizmat qilishi mumkin. Mana shunday soliqlargina uzoq yillar davomida o'zgarmasdan qoladi. Bu soliqning **qat'iy belgilanganlik** yoki **o'zgarmaslik** xususiyatidir.
4. Ayrim paytlarda soliqlar davlat tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi, ayrim hollarda esa xatto butunlay bekor qilinishi mumkin. Bunday hol ayniqsa davlat tomonidan iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan vaqtda ayniqsa ko'proq ro'y beradi. Bu soliqning **o'zgaruvchanlik** yoki **doimiy harakatdalik** xususiyatidir.
5. Har bir soliq to'lovchi davlatdan to'lagan solig'iga yarasha ijtimoiy to'lovlar yoki xizmatlar kutmasligi kerak. Masalan, soliq to'lovchi soliqni to'la to'lagani bilan yil davomida davlatning ta'lim, sog'liqni saqlash, miliitsiya yoki yong'indan saqlash tizimlari xizmatlaridan umuman foydalanmagan bo'lishi mumkin. Lekin bu unga shu yilgi soliqni qaysidir darajada kamroq to'lash huquqini bermaydi. Bu soliqning muayyan bir soliq to'lovchisi uchun **ekvivalentsizlik**, ya'ni **bir xil miqdorda qaytib kelmasligi** xususiyatidir.

Soliqlarni undirib o'z budjetini to'ldirar ekan davlat o'z fuqarolarining barchasini manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi. Daromad qilishga va mulkka egalik qilishga imkoni bor odam bunday imkoni yo'q odamga nisbatan davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy to'lovlar va xizmatlarga kamroq muhtojlik sezadi. Shuning uchun ham soliq tizimi birinchi navbatda ijtimoiy adolatga xizmat qiladi. Qolaversa soliq to'lovidan barcha odamlar, shu jumladan soliq to'lovchining o'zi ham manfaatdordir.



1. Soliq nima?
2. Soliq kodeksining 12-moddasida soliqqa qanday ta'rif berilgan?
3. Soliq to'lovining boshqa pul to'lovlaridan farqini ta'minlovchi qanday xususiyatlari bor?
4. Soliq to'lovining o'ziga xos xususiyatlari ma'nosini aytib bering.
5. Davlat soliq undirish va o'z budjetini to'ldirish bilan qanday maqsadni va kimlarning manfaatlarini ko'zlaydi?
6. Soliq to'lovlaridan kimlar manfaatdor?

5. SOLIQ TO'LOVCHILARNING HUQUQLARI



1. 1 – 3-rasmlardagi soliq to'lovchilarning qanday huquqlari bor deb o'ylaysiz?
2. Ularning huquqlari poymol qilinmasligi uchun kim tomonidan va qanday kafolatlar berilishi lozim?
3. Soliq to'lovchi va soliq undiruvchi – davlat o'rtasidagi munosabatlarda soliq to'lovchining huquqlari himoya qilinishidan kimlar manfaatdor bo'lishi mumkin?

Soliq to'lovchilar bir qator huquq va majburiyatlarga egadirlar. Ularning huquq va majburiyatlari amaldagi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonun va soliq bo'yicha boshqa huquqiy hujjatlarda belgilab qo'yilgan.

Soliq to'lovchilarning huquqlarini qonun vositasida kafolatlar ekan, davlat soliq to'lovchisining manfaatini himoya qilish bilan bir paytda soliq tizimida ro'y berishi mumkin bo'lgan adolatsizliklarning oldini oladi.

Soliq to'lovchining o'z huquqlarini bilishi esa unga o'z manfaatlarini himoya qilish uchun zamin yaratadi.

Endi soliq to'lovchining huquqlarini sanab o'tamiz.

Soliq to'lovchilarning asosiy huquqlari:

- soliqqa oid masalalar bo'yicha soliq organlaridan zarur maslahatlar va turli ma'lumotlar olish;
- davlat tomonidan belgilangan soliq imtiyozlaridan foydalanish;
- belgilanganidan ortiqcha to'langan soliqlarni qaytarish bo'yicha soliq organlariga murojaat qilish va arizasining qanoatlantirilishi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish;
- soliq organlaridan o'zining budjet oldida soliqlar bo'yicha qarzi bor yoki yo'qligi bo'yicha zarur ma'lumotlarni olish;
- soliq organlari tomonidan tekshiruv o'tkazilgan taqdirda tekshiruv materiallarining o'ziga tegishli bo'lgan qismi bilan tani-shish;
- o'zining soliq to'lovchi sifatida huquqlari buzilgan taqdirda bunga sababchi bo'lgan mansabdor shaxslar yoki soliq organlari ustidan tegishli joylarga shikoyat qilish;
- soliqchi to'lanishi lozim bo'lgan soliq yig'imlarini hisoblashda xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa shu xatolarni o'z ixtiyori bilan mustaqil tuzatish.

Yuqorida sanab o'tilgan huquqlarning kafolatlanishi soliq to'lovchini osoyishtalik va ertangi kunga ishonch bilan faoliyat ko'rsatishga imkon yaratadi. Natijada soliq to'lovchining faoliyatidan davlat va butun jamiyat bahramand bo'ladi.



1. Soliq to'lovchilarning qanday huquqlari bor?
2. Bu huquqlar kim tomonidan va qanday kafolatlangan?
3. Davlat soliq to'lovchining huquqlarini kafolatlash bilan nimalarning oldini oladi?
4. Soliq to'lovchiga o'z huquqlarini bilishi unga nima beradi?
5. Soliq to'lovchi huquqlaridan qaysidir bir huquqini boshqalariga nisbatan muhimroq deb ajratib ko'rsatsa bo'ladimi? Javobingizni asoslang.

6. SOLIQ TO'LOVCHINING MAJBURIYATLARI



- 1-rasmdagi soliq to'lovchilarning soliqlarni o'z vaqtida to'lashlarining 2 – 5-rasmlarda tasvirlangan odamlarning hayot sharoitlariga qanday ta'siri bor deb o'ylaysiz?
2. 4-rasmdagi shahar ko'chasining holatiga-chi?
3. 5-rasmdagi maktabdagi shart-sharoitlarga-chi?
4. Soliq to'lovchini soliq to'lovlarini o'z vaqtida, to'la-to'kis amalga oshirishini kafolatlash uchun unga qanday talablar qo'yilishi maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz?
5. Soliq to'lovchi shaxs o'zining jamiyat oldidagi majburiyatlarini his qilishi va bajarishi sizning va atrofingizdagi odamlarning turmush sharoitingizga va mamlakatimiz farovonligi omili ekanligini asoslab berishga harakat qiling.

Har bir jismoniy yoki yuridik shaxs soliq to'lovchi sifatida jamiyatimiz va davlatimiz oldida qator majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi va bajarishi shart. Chunki uning soliq to'lovchi sifatidagi zimmasiga

yuklangan vazifalarni bajarishi, soliq to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishdan butun jamiyat manfaatdordir.

Soliq to'lovchining asosiy majburiyatlarini sanab o'taylik.

Soliq to'lovchining majburiyatlari:

- soliq to'lovchi jismoniy yoki yuridik shaxs bo'lishidan qat'iy nazar belgilangan muddatda soliq organlarida ro'yxatdan o'tish va soliq to'lovchisi sifatidagi tartib raqamini olish;
- hujjatlarda ko'rsatilgan pochta manzili o'zgargan paytda mahalliy soliq organlarini bu haqda o'z vaqtida xabardor qilish;
- soliqlarning qonun bo'yicha belgilangan miqdorini o'z vaqtida to'lash;
- soliq to'lovchi jismoniy shaxs bo'lgan taqdirda o'zining daromadlari hisob-kitobini va soliq to'lash bo'yicha boshqa hisob-kitoblarni qonun talablariga binoan amalga oshirish;
- soliq to'lovchi yuridik shaxs bo'lgan taqdirda buxgalteriya hisobini qonun talablari bo'yicha qat'iy va aniq yuritish;
- soliq to'lovchi jismoniy shaxs bo'lgan taqdirda daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani va soliqlar bo'yicha zarur hisob-kitoblarni mahalliy soliq organlariga o'z vaqtida taqdim qilish;
- soliq to'lovchi yuridik shaxs bo'lgan taqdirda moliyaviy hisobotni va soliq to'lovlari bo'yicha tegishli hisob-kitoblarni mahalliy soliq organlariga o'z vaqtida taqdim qilish;
- soliq bo'yicha imtiyozlardan foydalanilgan taqdirda ushbu imtiyozlar huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mahalliy soliq organlariga o'z vaqtida taqdim etish;
- soliqlar va boshqa majburiy yig'imlarni hisoblash va to'lash bo'yicha tekshiruv ishlari qonuniy ravishda amalga oshirilayotgan paytda soliq organlarining mansabdor shaxslarini daromad olish yoki soliq solinuvchi obyektlarining saqlanishi bilan bog'liq joylarga kirishiga to'sqinlik qilmaslik;
- soliq qonunchiligini buzgan taqdirda soliq organlarining ushbu buzilishni bartaraf etish bo'yicha talablarini bajarish.

Soliq to'lovchining yuqorida sanab o'tilgan majburiyatlarini bajarishi soliq tizimida noqonuniy vaziyatlar ro'y berishining oldini oladi. Uning o'z majburiyatlarini bilishi va sidqidildan bajarishi soliq undiruv-

chi – davlat uchungina emas, balki soliq to'lovchining o'zi uchun ham o'ta muhimdir. Chunki bu uning noxush vaziyatlarga tushib qolishining oldini oladi va osoyishtalikda faoliyat ko'rsatishi uchun zamin bo'lib xizmat qiladi.



Tarixdan ma'lumki, insoniyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri mustaqil davlat va barqaror iqtisodiyotdir. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror va mustahkam bo'lishida soliq masalasi, uning tuzilishi, to'lash tartiblari va boshqa shu bilan bog'liq masalalar muhim ahamiyatga ega. Buyuk alloma, she'riyat mulkining sultoni deya tan olingan Alisher Navoiy bobomiz ham o'z davrida vazir va davlat arbobi sifatida bu masalalar bilan



bevosita shug'ullanganligi tarixdan ma'lum. Ana shu nuqtayi nazar Alisher Navoiy asarlarida soliq masalasi o'z ifodasini topganligiga taajjublanmasa ham bo'ladi. Ayni vaqtda u oddiy odamlarga "Soliqni to'lashdan bosh tortmaslikni maslahat berdi, zero bunday xatti-harakat "o'z sheriklariga jafu qilishlik" bilan barobardir", deydi. Alisher Navoiyning soliq haqidagi, boj-hiroj to'lash haqidagi fikrlari mustaqil davlatimiz soliq tizimi haqidagi bilimlarimizning tarixiy asoslarini bilib olishga yordam berishi tabiiydir.


Manba: "Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan"



1. Soliq to'lovchining majburiyatlarini sanab bering.
2. Soliq to'lovchining qaysidir majburiyatini uning boshqa majburiyatlariga nisbatan muhimroq deb atasak bo'ladimi?
3. Soliq to'lovchining o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va sidqidildan bajarishidan kimlar manfaatdor?
4. Uning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida, sidqidildan bajarishi unga qanday imkoniyatlarni yaratadi?
5. Siz soliq to'lovchi bo'lganingizda qaysi majburiyatlarni eng avvalo bajargan bo'lar edingiz?

7. UMUMDAVLAT, MAHALLIY SOLIQLAR VA MAJBURIY TO'LOVLAR

Mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlar va yig'imglar umumdavlat va mahalliy soliqlardan iboratdir.



Siz "O'zbekiston davlati va huquqi asoslari fanidan" hokimiyatning ijro etuvchi organlari Vazirlar mahkamasi va mahalliy hokimiyat organlaridan iborat ekanligini bilasiz. Shundan kelib chiqib:

1. Chizmani izohlab berishga harakat qiling.
2. Vazirlar mahkamasi va mahalliy hokimiyat organlarining vazifalarini eslang va aytib bering.
3. Mana shu vazifalarni bajarish uchun markaziy va mahalliy hokimiyat organlari mablag'larni qayerdan olishlari mumkin deb o'ylaysiz?
4. Umumdavlat va mahalliy soliqlarning nomlanishi bilan bu soliqlarning tasarruf qilinishi yo'nalishlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga harakat qiling.

Respublika hukumati va mahalliy hukumat organlari o'zlarining va-kolatlariga va bajaradigan vazifalariga egadirlar. Mana shu vazifalarni bajarish uchun ular o'zlarining moliyaviy mablag'lariga ega bo'lishari kerak ekanligi tabiiy. Bu mablag'lar birinchi navbatda soliqlar va boshqa yig'imlar orqali to'planadi.



1. Sizing fikringizcha rasmlardagilarning qaysilari umum-davlat miqyosida, qaysilari esa mahalliy miqyosda moliyalashtiriladi?
2. Umumdavlat miqyosida va mahalliy miqyosda moliyalashti-rishga yana qanday misollar keltirish mumkin?

Vazirlar Mahkamasi umumdavlat miqyosida ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlari, fan, Respublika markaziy boshqaruv organlarining ta'minoti, huquqni himoya qilish organlari, mudofaa, aholini ijtimoiy himoya qilishni tashkil qilish kabi ulkan vazifalarni bajaradi. Shuning uchun ham soliqlar va boshqa yig'imlarning asosiy qismi Respublika budjetiga kelib tushadi. Biz quyidagi Respublika budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar tizimi sxemasini keltiramiz.

UMUMDAVLAT SOLIQLARI VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

qo'shilgan qiymat solig'i

aksiz solig'i

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlar

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

ijtimoiy jamg'arlarga majburiy to'lovlar

yagona ijtimoiy to'lov

fuqarolarning budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari

budgetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar

Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar

davlat boji

bojxona to'lovlari

yagona soliq to'lovi

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq



1. Sxemada berilgan soliqlar va majburiy to'lovlarning qaysi birlari sizga tanish?
2. Ularning nomlari ma'nosidan kelib chiqib ular qanday soliq va to'lovlar ekanligini tahmin qilib ko'ring va tahminlaringizni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

Mahalliy hokimiyat organlari asosan ta'lim, sog'liqni saqlash, shaharlar va qishloqlarni obodonlashtirish, madaniyat kabi sohalarni moliyalashtiradi. Shuning uchun ham mahalliy hukumatlar budjetlarini tashkil qilish uchun alohida soliq va yig'imlar joriy qilingan bo'lib bu soliq va yig'imlar to'laligicha ushbu budjetlarga kelib tushadi.

MAHALLIY SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLAR

mol-mulk solig'i

yer solig'i

obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i

jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun soliq

ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im

yagona yer solig'i



1. Sxemada keltirilgan mahalliy soliqlar majburiy to'lovlar va yig'imlarning nomlari sizga nimalarni anglatmoqda?
2. Ularning qaysilari sizga tanish?
3. Sizning fikringizcha nima uchun aynan shu soliqlar majburiy to'lovlar va yig'imlar mahalliy soliqlar, majburiy to'lovlar va yig'imlar turkumiga kiritilgan?

Mahalliy soliqlar va yig'implardan to'plangan mablag'lar amalda mana shu hudud bo'yicha barcha harajatlarni qoplashga yetmaydi. Shuning uchun ham mahalliy budjetlarga Respublika budjetidan ma'lum miqdordan ajratmalar beriladi.

Mahalliy soliqlar va majburiy to'lovlarning butun summasi faqat mana shu hududning o'zida qoladi va mahalliy budjetni to'ldirish va mahalliy loyihalarni moliyalashtirish uchun xizmat qiladi.

Amir Temur iqtisodiy qarashlari tizimida soliq masalasi markaziy o'rin tutadi. Sohibqiron o'z soliq siyosatida ham xalqning manfaati ustuvorligidan kelib chiqadi. U agar aholi soliq tizimi orqali kambag'allashib ketsa, davlat ham oqibatda kambag'allashib boradi, aholining boy-badavlat yashamog'i uchun adolatli soliq tizimi zarur, deb hisoblagan.

Amir Temur ta'kidlaydiki, aholidan olinadigan soliqlar ularning ishlab topgan daromadlariga qarab belgilanishi, ularning qaysi birlari el-yurt obodonchiligi yo'lida mol-mulki va sarmoyasini ayamay sarflasa, ularga davlat soliq to'lashda imtiyoz berishi kerak. Shu bilan birga u soliqlar odamlarni mehnatga, yaratuvchanlikka, tadbirkorlikka, sohibkorlikka rag'batlantirishi zarurligini uqtiradi. "Amr qildimki, – deyiladi Temur tuzuklarida, – aholidan mol-hiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, aholini xonavayron qilish davlat hazinasining kambag'allashuviga olib keladi".



Manba: "Iqtisodiy ta'limotlar tarixidan"

Soliqlar nomlarini ular borib tushadigan budjet nomi bilan to'g'ri tutashtiring.

RESPUBLIKA BUDJETI

foyda solig'i
(yuridik shaxslar)

yer
solig'i

ijtimoiy jamg'armalarga
majburiy to'lovlar

aksiz
solig'i

davlat
boji

chakana savdo qilish va xizmat
ko'rsatish uchun yig'im

yagona
yer solig'i

mol-mulk
solig'i

yoqilg'i
uchun soliq

qo'shimcha
qiymat solig'i

suv resurslaridan
foydalanganlik uchun soliq

foyda solig'i
(jismoniy shaxslar)

Respublika yo'l jamg'armasiga
majburiy to'lovlar

obodonlashtirish va ijtimoiy
infratuzilmani rivojlantirish solig'i

MAHALLIY BUDJETLAR



1. Nima sababdan soliqlar va majburiy to'lovlar umumdavlat va mahalliy soliqlar va majburiy to'lovlarga bo'linadi?
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi qanday vazifalarni bajaradi?
3. Mahalliy hokimiyat organlari-chi?
4. Respublika xukumati budjeti qay tarzda va qanday soliq va majburiy to'lovlar hisobiga shakllanadi?
5. Mahalliy hukumatlar budjetlari-chi?
6. Respublika hukumati budjeti mablag'lari qanday maqsadlarda sarflanadi?
7. Mahalliy hukumatlar budjetlari mablag'lari-chi?
8. Mahalliy hukumatlar budjetlariga yetmagan mablag'lar qayerdan olinadi? Bu mablag'larni kim beradi?
9. Umumdavlat va mahalliy soliqlar majburiy to'lovlar va yig'implarni o'zaro solishtirib qaysidir birini muhimroq deyish mumkinmi? Javoblarni asoslang.

8. SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLARNING ELEMENTLARI




- 1-rasmdagi avtomashinalar qanday daromad keltirishi mumkin?
- 2-rasmdagi do'kondan qanday daromadlar olinadi deb o'ylaysiz?
- Rasmlardagi do'kon va avtomashinalar soliq to'lovi nuqtai nazaridan qay darajada e'tiborli deb o'ylaysiz?
- Soliq to'lovchi soliqni o'z vaqtida va zarur miqdorda to'lay olishi uchun qanday ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak deb o'ylaysiz?

Soliq to'lovchi soliq to'lovlarini o'z vaqtida va zarur miqdorda to'lay olishi va adashmasligi uchun u ma'lum bir ma'lumotlarga ega bo'lishi shart. Bu ma'lumotlar soliqlarning turlari va elementlaridan iborat.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarning turlari haqida bilib oldik. Endi har qanday soliq va majburiy to'lovlar uchun xos bo'lgan elementlar haqida to'xtalsak.

SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLARNING ELAMENTLARI



Soliq to'lovi belgilanishi uchun avvalambor soliq solish uchun zarur obyektga nisbatan soliq to'lovi belgilanadi va ushbu obyekt egasi soliq to'lovchi deb tanilib undan belgilangan soliqni to'lash talab qilinadi.

Soliq to'lovi miqdorini belgilash uchun soliq to'lash obyektining o'lchovlariga nisbatan belgilanadi. Bu o'lchovlar pul, hajm, miqdor kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Mana shu o'lchovlar soliq solish bazasini tashkil qiladi. Soliq solish bazasiga nisbatan belgilangan

soliq miqdori esa **soliq stavkasi** deb ataladi. Soliq stavkasi soliq solish bazasining har bir birligiga (so'mga, donasiga, narxiga va h.k.)



*Soliq to'lash lozim bo'lgan (to'lanishini taqazo etadigan) har qanday mol-mulk, harakat, harakat natijasi **soliq solish obyekti** deya ataladi.*



*Soliq solish obyektining qiymat, miqdor, hajm va boshqa tavsilotlari (o'lchash birliklari) **soliq solinadigan baza** deya nomlanadi.*



Soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdor – **soliq stavkasi** deya nomlanadi.



Soliqni to'lash muddati hamda u bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish muddatini o'z ichiga oluvchi vaqt – **soliq davri** deyiladi.

qancha soliq to'lanishi kerakligini anglatadi.

Soliq to'lovchi jismoniy shaxsning mulki, misol uchun, uy-joyi soliq solish obyekti bo'lsa, soliq solinadigan baza ushbu uy-joyning narxi, qiymati bo'ladi.

Soliq to'lovchi soliqlarni o'z vaqtida, zarur miqdorda to'lay olishi uchun u hisobotlarni topshirish, soliq summasini hisoblash va soliqni to'lash tartibini bilishi zarur. Bunday ma'lumotlar soliq

to'lovchiga Soliq kodeksi va soliqqa oid boshqa normativ hujjat orqali taqdim qilinadi.

Soliq to'lovini o'z vaqtida va belgilangan miqdorda amalga oshirish uchun har bir soliq to'lovchining qachon va qay tartibda hisobotni topshirishini va soliq miqdorini to'g'ri hisoblay olishi lozim. Hisobotni topshirish muddatlari va tartibi hamda soliq miqdorini hisoblash tartibi muayyan me'yoriy hujjatlar orqali soliq organlari tomonidan soliq to'lovchiga yetkaziladi.

Soliq to'lovi aniqlanganidan so'ng uni to'lash kerakligi bo'yicha ham ma'lum tartib o'rnatilgan bo'lib, bu tartibga binoan soliq to'lovchi to'lovni birdaniga emas, balki o'z imkoniyatidan kelib chiqib qismlarga bo'lib to'lashga ruxsat etiladi.



1. Soliq to'lovlarini o'z vaqtida va zarur miqdorda amalga oshirishi uchun soliq to'lovchi qanday ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim?
2. Soliq va boshqa majburiy to'lovlarning qanday elementlari bor?
3. Soliq solish obyekti nima?
4. Soliq solinadigan baza nimalarni o'z ichiga oladi?
5. Soliq stavkasi nimalarda ifodalanadi?
6. Soliq davri qanday vaqtdan iborat?
7. Soliq to'lovchi hisobotlarni topshirish, soliq summasini hisoblash va soliqni to'lash tartiblarini qanday hujjatlardan topishi mumkin?

9. SOLIQ MUNOSABATLARINING SUBYEKTLARI




- 1- va 2-rasmlardagi shaxslarning soliq to'lovi mablag'lari 3- va 4-rasmlardagi shaxslarga qay tariqa yetib borishini tushuntirib bera olasizmi?
2. Bu mablag'larni undirish va bu mablag'larga ehtiyoji bo'lgan shaxslarga yetkazib berish kimning vazifasi deb o'ylaysiz?
3. Sizing fikringizcha ushbu mablag'larni to'plash va taqsimlashni qay tariqa yo'lga qo'yish mumkin?
4. Soliq to'plash va undirish bilan shug'ullanuvchi organlar to'g'risida eshitganmisiz? Bilganlaringizni sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.
5. Bojxona, boj, bojxona to'lovlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida **Soliq munosabatining subyektlari** deb soliq to'lovchilar va vakolatli organlar keltirilgan. Aynan mana shu subyektlar soliq to'lash va undirish bo'yicha faoliyatlarni amalga oshiradilar.



15-modda

Soliq to'lovchilar va vakolatli organlar soliq munosabatlarning subyektlaridir.



Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirish majburiyati zimmasida bo'lgan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslar **soliq to'lovchilaridir**.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda davlat budjetiga va maqsadli jamg'armalarga o'tkazish majburiyati zimmasiga yuklatilgan shaxslar **soliq agentlari** deb ataladi. Soliq agentlariga soliq to'lovchi ishlaydigan

tashkilotlarni yoki yuridik va jismoniy shaxsdan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni ushlab qolib davlat budjetiga va maqsadli jamg'armalarga o'tkazib beruvchi moliya organlarini misol qilib keltirish mumkin.

Qonun bo'yicha yoki yuridik shaxs ta'asis hujjatlariga binoan soliq to'lovchining vakili bo'lish vakolati berilgan shaxslar **soliq to'lovchining vakillari** deb yuritiladi.



1. Qaysi rasmlarda soliq to'lovchilar tasvirlangan?
2. Vakolatli organlar qaysi rasmda tasvirlangan?
3. 5- va 6- rasmlarda kimlar tasvirlangan?
4. Rasmlardan foydalanib soliq to'lovlari mablag'lari kimlardan, qaysi organlar orqali kimlarga berilishini sxematik tarzda tasvirlang.
5. Soliq to'lovlarini amalga oshirishda ushbu to'lov jarayonini har bir qatnashchisining roli va mas'uliyatini ifodalashga harakat qiling.

Davlat tomonidan qonun asosida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasi qo'yilgan va vakolati berilgan davlat organlari va tashkilotlari **vakolatli organlar** deb ataladi.

Davlat vakolatli organlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, tumanlar va shaharlar davlat soliq inspeksiyalari. Bular **davlat soliq xizmati organlaridir**;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona joylari. Bular **bojxona organlaridir**;
- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklarining moliya bo'limlari. Bular **moliya organlaridir**;
- Boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini bajaruvchi davlat organlari va tashkilotlari.

Soliq to'lovlarni amalga oshirilishi jarayonida har bir qatnashchining roli beqiyosdir. Chunki soliq to'lovlarni soliq to'lovchisiz to'lanishini tasavvur qilishning iloji yo'q. Soliqni to'plash va davlat budjetiga yoki boshqa jamg'armalarga yo'naltirish bo'yicha mutasaddi tashkilotlar vakolatli organlar va soliq agentlarisiz amalga oshirilmasligi ham aniq. Soliq munosabatlarining barcha subyektlari yaxshi mexanizmlardek faoliyat ko'rsatganlaridagina butun jarayon ko'ngildagidek kechadi.




1. Soliq munosabatlarining subyektlari kimlardan iborat?
2. Soliq munosabatlari subyektlari qanday vazifalarni bajaredilar?
3. Soliq to'lovchisiga ta'rif bering.
4. Soliq agentlari qanday shaxslardan iborat?
5. Soliq to'lovchining vakillari qanday vakolatlarga ega bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz?
6. Vakolatli organlar deb qanday organlarga aytiladi?
7. Vakolatli organlarga qanday tashkilotlarni kiritish mumkin?

10. YURIDIK VA JISMONIY SHAXSLAR



- 1- va 2- rasmlarda tasvirlangan odam va tashkilotlar o'z mablag'larini qanday qilib saqlaydilar va tasarruf qiladilar deb o'ylaysiz?
2. Rasmlardagi odamlar va tashkilotlarning qaysilarining asosiy maqsadi foyda ko'rish bo'lishi mumkin deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.
3. 3- va 4-rasmlardagi tashkilotlarning faoliyatlaridan maqsadlari nima deb o'ylaysiz?
4. 5- va 6-rasmlardagi shaxslarning faoliyatlarida qanday farq va qanday umumiylik bor deb o'ylaysiz?

Soliq to'lovchilar sirasiga daromad oluvchi va mulkka egalik qiluvchi jismoniy shaxslar, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va no-fuqarolardan tashqari turli korxonalar va tashkilotlar ham kiradi. Soliqlar to'lovchilarni quyidagi sxema asosida tasniflash mumkin.



1. Chizma-sxema bilan tanishib chiqing va izohlashga harakat qilib ko'ring.

2. Sxemadagi qaysi atamalar siz uchun notanish?
3. Siz yashayotgan hududda chet el korxonalari yoki tashkilotlari vakolatxonalari yoki qo'shma korxonalar bormi? Bo'lsa, ular to'g'risida nimalar bilasiz?
4. Siz qanday xalqaro tashkilotlarning nomlarini bilasiz? Ularning maqsad va vazifalari to'g'risida nima deya olasiz?

Quyidagilar **yuridik shaxs** deb ataladi:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tashkil etilgan va faoliyat yurituvchi, o'z mulkiga, balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshira oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida faoliyat yurituvchi, lekin chet davlatning qonun hujjatlari asosida tashkil qilingan xorijiy va (yoki) xalqaro tashkilot.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar **jismoniy shaxslar** deb ataladi.

Aksariyat firma va korxonalar o'z oldiga ko'proq foyda olishni maqsad qilib qo'yadi. Lekin shunday tashkilotlar – yuridik shaxslar borki ularning asosiy maqsadi foyda olish emas. Ular o'z daromadlarini ham o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydilar. Bunday tashkilotlar **notijorat tashkilotlari** deb ataladi.

Davlat budjeti orqali moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanadigan tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari notijorat tashkilotlaridir.

Tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi hamma shaxslarni ham yuridik shaxs deb atab bo'lmaydi. Shunday tadbirkorlik subyektlari borki ular o'z faoliyatlarini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, xodimlarni yollash huquqisiz, o'z kuchi va mablag'i hisobidan amalga oshiradilar. Bunday jismoniy shaxslar **yakka tartibdagi tadbirkorlar** deb yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar, yarim yildan ortiq vaqt yashagan jismoniy shaxslar **O'zbekiston Respublikasi rezidentlari** deb ataladi. Bu maqomga ega bo'lmagan barcha jismoniy va yuridik shaxslar **O'zbekiston Respublikasining norezidentlari** deb ataladi.



- 1- va 2-rasmdagi odamlarning O'zbekiston Respublikasida qanday huquqiy maqomga ega ekanliklarini bilasizmi?
- 3- va 4-rasmlardagi tashkilotlarning O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy maqomlari haqida nimalarni bilasiz?
- 3- va 4-rasmdagi tashkilotlar O'zbekistondagi faoliyatlari natijasidan yoki mulklaridan soliq to'lashlari bo'yicha qanday talablar qo'yilishi maqsadga muvofiq deb o'ylaysiz? Tahminingizni sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.



1. Soliq to'lovchilar qay tarzda tasiflanadi?
2. Jismoniy shaxslar kimlar?
3. Yuridik shaxslar-chi?
4. Qanday tashkilotlar notijorat tashkilotlar deb ataladi?
5. Yakka tartibdagi tadbirkorlar kimlar?

11. SOLIQLARNI IQTISODIY MOHIYATIGA QARAB GURUHLASH

Mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlarni soliqqa tortish obyektiga va iqtisodiy mohiyatiga binoan guruhlash mumkin.

Soliqlarning soliqqa tortish obyektiga nisbatan guruhlash.






1. Har bir guruhning nomiga qarab ushbu guruhga kiruvchi soliqning mohiyati bilan bog'liqligini topishga harakat qiling.
2. Soliqlarning bunday guruhlantirishida qanday mantiqiy asos bor deb o'ylaysiz?
3. Ushbu guruhlarning qaysidir birini boshqalaridan afzalligi bor deb aytsa bo'ladimi? Javobingizni asoslang.

Yuridik va jismoniy shaxslarning oboroti deb ilgari mahsulot realizatsiyasi, ya'ni sotishdan tushgan tushum oboroti tushunilar edi. Bizning hozirgi qonunchiligimizga binoan esa yuklab yuborilgan mahsulot qiymati **oborot** deb yuritiladi.

Soliqlarni ularning iqtisodiy mohiyatiga qarab tasniflash ham qabul qilingan. O'z iqtisodiy mohiyatiga qarab soliq egri va to'g'ri soliq bo'linadi.





1. Soliqlarning bu tarzda guruhlanishi sabablarini tahmin qilishga harakat qilib ko'ring.
2. Soliqlar guruhlarining nomlanishiga nima sabab bo'lgan deb o'ylaysiz?
3. Sizning fikringizcha qaysi guruh soliqlarining o'zgarishi soliq to'lovchining iqtisodiy faolligiga kuchliroq ta'sir o'tkazishi mumkin?

To'g'ri soliqlarni soliq to'lovchining o'zi to'g'ridan to'g'ri to'laydi. Bu guruhga kiruvchi soliqlar soliq to'lovchilarning o'z daromadlari va mol-mulklariga bog'liq bo'lganligi uchun ushbu guruhga kiruvchi soliqlar stavkalarini pasaytirish soliq to'lovchilarning iqtisodiy faolligini oshirishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. Shuning uchun ham to'g'ri soliqlar stavkalarining kamayib borishi davlatimiz tomonidan amalga oshirilmoqda.

Egri soliqlar Tovar qiymati ustiga ustama sifatida qo'yiladi. Demak bu Tovar iste'molchisi ushbu tovarni sotib olar ekan belgilangan egri soliq uchun ham pul to'laydi. Lekin ushbu soliqlarni davlatga tovarni yuklab yuboruvchi (sotuvchi) o'z mahsuloti uchun olgan pulidan to'laydi. Bir qarashda egri soliqlar stavkalarini oshirish soliq to'lovchilarning iqtisodiy faolligiga ta'sir qilmaydigandek ko'rinadi. Chunki soliq to'lovchi to'lagan solig'ini jo'natayotgan to'vari qiymatiga qo'shadi-da. Ammo soliq stavkasi keskin oshirib yuborilsa, tovar narxi keskin ko'tarilib ketishi mumkin. Natijada uni sotish qiyinlashadi va tovar pulga aylanasdan soliq to'lovchini qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkin.



Soliqlarni soliqqa tortish obyektiga nisbatan va iqtisodiy mohiyatiga nisbatan guruhlarga ajratng.

Soliqqa tortish obyektiga nisbatan guruhlar

Oborotdan olinadigan soliqlar

Daromaddan olinadigan soliqlar

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar

Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar

qo'shilgan qiymat solig'i

qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig'i

yuridik (noqishloq xo'jalik) shaxslardan olinadigan yer solig'i

aksiz solig'i

bojxona to'lovlari va bojlar

yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i

savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining yalpi daromadidan olinadigan soliq

mol-mulk solig'i

yer osti boyliklari qiymatidan olinadigan soliqlar

yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i

obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i



To'g'ri soliqlar

Egri soliqlar

Iqtisodiy mohiyatiga nisbatan guruhlar



1. Mamlakatimizda soliqlarni qaysi jihatlariga qarab tasniflash qabul qilingan?
2. Soliqlarni soliqqa tortish obyektiga nisbatan qanday guruhlarga ajratish mumkin?
3. Har bir guruhga kiruvchi soliqlarning nomlarini sanang.
4. Soliqlarni iqtisodiy mohiyati bo'yicha qanday guruhlarga ajratiladi?
5. Har bir guruhga kiruvchi soliqlarni sanab bering?
6. To'g'ri soliqlar stavkalarining o'zgartirilishi soliq to'lovchining iqtisodiy faolligiga va oxir-oqibat iqtisodiyot rivojiga qanday ta'sir o'tkazishi mumkin?
7. Egri soliqlar stavkalarini o'zgartirilishi-chi?



1. Soliq solish obyekтини;
2. Soliq to'lovchilarni;
3. Soliq solish obyekti bo'la olmaydiganlarni;
4. Soliq to'lovchi emas shaxslarni;
5. Davlat budjeti orqali moddiy jihatdan ta'minlanuvchi;
6. Ham soliq to'lovchi, ham davlat budjeti orqali moddiy jihatdan ta'minlanuvchi shaxslarni ajratib ko'rsating.

SOLIQ TO'LOVCHISI BILISHI ZARUR BO'LGAN ASOSIY TUSHUNCHALAR

(O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 22-moddasiga asosan)

Asosiy ish joyi – ish beruvchi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo'lgan ish joyi;

asosiy faoliyat turi – yuridik shaxsning umumiy realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati;

budjetdan ajratiladigan subsidiya – davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun budjet hisobidan beriladigan pul mablag'lari;

grant – davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hukumati belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi hukumatiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk;

dividendlar – aktsiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida (ishtirokchilari, a'zolari o'rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalari bo'yicha) taqsimlanadigan sof foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol-mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek muassis (ishtirokchi, a'zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis

(ishtirokchi, a'zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol-mulkning qiymati chegiriladi;

ijara (lizing) to'lovi – ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'laydigan summa;

ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi – buxgalleriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to'lovi summasi bilan ijara (lizing) obyektining qiymatini qoplash summasi o'rtasidagi farq ko'rinishidagi ijara (lizing) to'lovining bir qismi;

insonparvarlik yordami – aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo'llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarining oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg'araz ko'maklashish. Insonparvarlik yordami, dori vositalari va tibbiy ahamiyatga molik buyumlar, xalq iste'moli tovarlari, boshqa tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar, transport va texnika, shuningdek ixtiyoriy ravishdagi xayr-ehsonlar, bajarilgan ishlar va xizmatlar, shu jumladan insonparvarlik yordami yuklarini tashish, kuzatib borish va saqlash tariqasida beriladi hamda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan vakolatli tashkilotlar orqali taqsimlanadi;

ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish – ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

kredit tashkilotlari – tegishli litsenziyaga ega bo'lgan banklar, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari;

kurs bo'yicha farq – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq;

mol-mulk – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish predmetlari bo'la oladigan moddiy obyektlar, shu jumladan pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar hamda nomoddiy obyektlar. Obyektlarni mol-mulk jumlasiga kiritish fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi;

oila a'zolari – er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan farzandlikka olinganlar;

operativ ijara – moliyaviy ijara shartnomasi bo'lmagan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulk vaqtincha egalik qilish va uni foydalanishga berish;

realizatsiya qilish – sotish, ayirboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqini garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish. Hisobvaraq-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, tovarlar jo'natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi kvitantsiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir;

royalti – quyidagilar uchun har qanday turdagi to'lovlar:

fan, adabiyot va san'at asarlaridan, shu jumladan elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar obyektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini berganlik uchun;

sanoat mulki obyektiga, savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi

patentdan (guvohnomad) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun;

savdo faoliyati – qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat;

soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi;

soliq qarzi – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan ushbu Kodeksda belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar;

sof tushum – tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'ini hamda aksiz solig'i summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum;

sof foyda – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda;

tannarx – mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi;

tovar oboroti – muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo'lgan), pulda ifodalangan mablag'lar;

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum – realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun

olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati;

tovarlarni eksport qilish – O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish;

to'lov manbai – soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs;

umidsiz qarz – sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarz;

favqulodda holatlar – taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog'liq bo'lmagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko'chkilar, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko'zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlar bo'lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi;

foizlar – har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, shuningdek depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad;

yutuq – lotereyalar, o'yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holidagi yoki pulda ifodalangan to'lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar;

yaqin qarindoshlar – er, xotin, ota-ona, bolalar, tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar;

O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri – soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi;

qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallar – buyurtmachiga tegishli xom ashyo va materiallar bo'lib, buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi;

hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar – operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

**ERGASHVOY SARIQOV, BAHODIR HAYDAROV,
SHERZODBEK SARIQOV, KOMILJON ALLAMJONOV**

SOLIQQA TORTISH ASOSLARI

*Umumta'lim maktablarining
8-sinfi uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — “Yangiyul poligraph service” — 2008

Muharrir — *R. Qo'chqorov*

Texnik muharrir — *A. Kaybisheva*

Musahhah — *B. Azimov*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 14.10.08. Bichimi 60x90¹/₁₆.
«Arial» garniturasida. Ofset bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 3,0.
Nusxasi 100000. Buyurtma N 71.

“Yangiyul poligraph service” MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Yangiyo'l sh., Samarqand ko'chasi, 44.